



CLINICAL USE AND PHARMACOLOGICAL PROPERTIES OF ADVANTAN® (0.1% METHYLPREDNISOLONE ACEPONATE) OINTMENT

Kocherova Umida Anvarovna

2nd year student, Faculty of Medicine,

Department of Pharmacy, Alfraganus University

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17034100>

ARTICLE INFO

Received: 25th August 2025

Accepted: 30th August 2025

Online: 31st August 2025

KEYWORDS

Advantan®,
methylprednisolone
aceponate, topical
glucocorticosteroid, atopic
dermatitis, eczema, allergic
dermatoses,
pharmacological properties.

ABSTRACT

This article discusses the clinical application and pharmacological properties of Advantan® (0.1% methylprednisolone aceponate) ointment in dermatological diseases. As a topical glucocorticosteroid, it exhibits anti-inflammatory, antiallergic, and immunosuppressive effects. Advantan is effective in atopic dermatitis, eczema, contact dermatitis, and allergic dermatoses. Clinical studies have demonstrated its high efficacy and relative safety. When applied topically, systemic absorption is minimal, ensuring good outcomes in both children and adults during short-term treatment. The article also highlights administration methods, dosage, contraindications, and safety considerations.

ADVANTAN® (0,1% METILPREDNIZOLON ASEPONAT) MAZINING KLINIK QO'LLANILISHI VA FARMAKOLOGIK XUSUSIYATLARI

Kocherova Umida Anvarovna

Alfraganus Universiteti Tibbiyot fakulteti farmasevtika yo'nalishi 2-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17034100>

ARTICLE INFO

Received: 25th August 2025

Accepted: 30th August 2025

Online: 31st August 2025

KEYWORDS

Advantan®,
metilprednizolon aseponat,
mahalliy
glukokortikosteroid, atopik
dermatit, ekzema, allergik
dermatoz, farmakologik
xususiyatlari.

ABSTRACT

Mazkur maqolada Advantan® (0,1% metilprednizolon aseponat) mazining dermatologik kasalliklarda qo'llanilishi va farmakologik xususiyatlari yoritilgan. Preparat mahalliy glukokortikosteroid sifatida yallig'lanishga qarshi, allergiyaga qarshi va immunosuppressiv ta'sir ko'rsatadi. Advantan atopik dermatit, ekzema, kontakt dermatit va allergik dermatozlarda samarali hisoblanadi. Klinik tadqiqotlar preparatning yuqori samaradorligi va nisbatan xavfsizligini ko'rsatgan. Mahalliy qo'llanganda sistemik so'rilishi juda past bo'lib, bolalar va kattalarda qisqa muddatli davolashda yaxshi natija beradi. Preparatning qo'llash usullari, dozalash rejimi, qarshi ko'rsatmalar va ehtiyot choralari ham e'tibor qaratilgan.



Kirish.

Dermatologik kasalliklar, jumladan atopik dermatit, ekzema va allergik dermatozlar pediatriya va umumiy tibbiyot amaliyotida keng uchraydi. Ushbu kasalliklar bemorlarning hayot sifatiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi: doimiy qichishish, uyquning buzilishi, psixosotsial holatning yomonlashuvi va ikkilamchi infeksiyalar qo'shilishi bilan kechadi. Davolashning asosiy maqsadi – yallig'lanish jarayonini kamaytirish, allergik reaksiyani nazorat qilish va terining himoya funksiyasini tiklashdir. Mahalliy glukokortikosteroidlar (GKS) zamonaviy dermatologiyada birinchi qator preparatlar qatoriga kiradi. Ularning ichida Advantan® (0,1% metilprednizolon aseponat) keng qo'llanilib, klinik samaradorligi va nisbatan xavfsizligi bilan ajralib turadi. Preparat mazъ, krem va emulsiya shakllarida ishlab chiqariladi.

Asosiy qism.

Faol modda – metilprednizolon aseponat, sintetik kortikosteroid. U glukokortikoid retseptorlari bilan bog'lanib, yallig'lanish mediatorlari (prostaglandin, leykotrien, gistamin) sintezini to'xtatadi. Natijada:

yallig'lanishga qarshi ta'sir,

allergiyaga qarshi ta'sir,

immunosuppressiv (mahalliy immunitetni pasaytiruvchi) ta'sir yuzaga keladi.

Preparat teriga surtganda asosan mahalliy ta'sir ko'rsatadi, sistemaga so'rilishi juda past. Klinik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, metilprednizolon aseponat qon plazmasiga juda oz miqdorda o'tadi va organizmda tez parchalanadi, bu esa nojo'ya ta'sirlar xavfini kamaytiradi.

Klinik qo'llanish sohasi.

Advantan turli yallig'lanishli va allergik teri kasalliklarida qo'llaniladi. Ular orasida:

Atopik dermatit (nevrodermit) – bolalarda keng tarqalgan allergik teri kasalligi. Advantan qichishishni tezda kamaytiradi va terini tinchlantiradi.

Ekzema – turli shakllari (bolalar ekzema, mikrob ekzema, kasbiy ekzema, disgidrotik ekzema). Preparat yallig'lanish va namlanishni kamaytirib, teri bar'erini tiklashga yordam beradi.

Kontakt dermatit – kimyoviy moddalar, allergenlar yoki mexanik ta'sir natijasida paydo bo'lgan teri shikastlanishlari.

Allergik dermatozlar – turli sabablarga ko'ra paydo bo'lgan qizarish, qichishish va shish bilan kechuvchi kasalliklar.

Qo'llash usuli va dozlash.

Advantan faqat tashqi qo'llash uchun mo'ljallangan.

Preparatni zararlangan joyga kuniga 1 marta yupqa qatlam qilib surtiladi.

Kattalarda maksimal qo'llash muddati – 12 haftagacha,

bolalarda (4 oydan katta) – 4 haftagacha.

Preparatni bezi ostiga, ochiq yaralar yoki shilliq pardalarga surtish tavsiya etilmaydi.

Quruq terida – mazъ, namlanishli jarayonda – krem, keng yuzalardagi shikastlanishda – emulsiya shakli qulay hisoblanadi.

Qarshi ko'rsatmalar.

Advantan quyidagi holatlarda qo'llanmaydi:

teri tuberkulyoz va sifilitik shikastlanishlari,

virusli infeksiyalar (gerpes simplex, suvchechak),



bakterial va zamburug'li infeksiyalar,
4 oylikkacha bo'lgan chaqaloqlar,
preparat komponentlariga allergiya.

Preparat odatda yaxshi o'zlashtiriladi. Kam hollarda quyidagilar kuzatiladi:

terida qizarish, qichishish, toshma, qurish,

uzoq muddat ishlatganda – teri atrofiyasi, striyalar, teleangiektaziyalar, steroid akne.

Bolalarda teri yupqaroq bo'lgani uchun, dori moddasi tezroq so'rilishi mumkin. Shu sababli pediatriyada faqat qisqa muddatli va shifokor nazorati ostida qo'llanadi.

Advantan lokal kortikosteroidlar ichida samaradorligi va xavfsizligi bo'yicha yaxshi o'rganilgan preparatlardan biridir. Klinik tadqiqotlar (Korting va hammuall., 1999; Gollnick va hammuall., 2006) shuni ko'rsatadiki, metilprednizolon aseponat uzoq muddat qo'llanganda ham sistemik nojo'ya ta'sirlar keltirib chiqarmaydi, chunki teri orqali so'rilishi juda past. Shu bilan birga, u yallig'lanish va qichishishni tezda kamaytiradi. Biroq, Advantan infeksiyon dermatozlarda qo'llanmasligi kerak. Chunki preparat mahalliy immunitetni susaytirib, mikroorganizmlar ko'payishini tezlashtirishi mumkin. Shu sababli bakterial yoki zamburug'li teri infeksiyalarida uni faqat antimiko'tik yoki antibakterial vositalar bilan kombinatsiyada ishlatish mumkin.

Xulosa.

Advantan® (0,1% metilprednizolon aseponat) – mahalliy qo'llaniladigan glukokortikosteroid bo'lib, atopik dermatit, ekzema va allergik dermatozlarni davolashda yuqori samarali dori vositasi hisoblanadi. Preparatning farmakologik xususiyatlari uning nisbatan xavfsizligini ta'minlaydi, ammo uzoq muddat va nazoratsiz qo'llash nojo'ya ta'sirlarni kuchaytirishi mumkin. Shu sababli, uni faqat shifokor ko'rsatmasiga binoan va belgilangan muddat davomida qo'llash tavsiya etiladi.

References:

1. Abdullayev A.A., Karimov B.X. Dermatovenerologiya. – Toshkent: Tibbiyot nashriyoti, 2018.
2. Rahmatullayev R.R. Farmakologiya: Darslik. – Toshkent: Tibbiyot nashriyoti, 2019.
3. Jo'rayev Sh.M. Bolalar dermatologiyasi asoslari. – Toshkent: Ilm-Ziyo, 2020.
4. Xolmatova D.S. Teri kasalliklari va ularning davolash usullari. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2021.
5. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi. Dermatologik kasalliklarni davolash bo'yicha klinik protokollar. – Toshkent: SSV, 2022.
6. Rustamov O.T. Farmatsevtik ensiklopediya. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2017.